



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**"BOSHLANG'ICH SINF  
O'QUVCHILARIGA TA'LIM-TARBIYA  
BERISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALARNING O'RNI"  
MAVZUSIDA**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
ANJUMANI**

**MATERIALLARI  
TO'PLAMI**



**Denov-2024**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**BOSHLANG‘ICH TA’LIM METODIKASI KAFEDRASI**

**“BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA TA’LIM-TARBIYA  
BERISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALAR NING O‘RNI”  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman  
MATERIALLARI TO‘PLAMI  
III QISM**

**2024-yil 18-sentyabr**

**СБОРНИК МАТЕРИАЛЫ  
Республиканской научно-практической конференции по теме  
“РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ  
ПРИ ОБУЧЕНИИ И ВОСПИТАНИИ УЧЕНИКОВ  
НАЧАЛЬНОГО КЛАССА”  
18 сентября 2024 года**



**Denov – 2024**

**UDK: 373.3.016:005.591.6**

**KBK: 74.202.4**

**B 89**

*Anjuman materiallari Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining ilmiy-uslubiy kengashining 2024-yil 16-apreldagi № 51-A-bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.*

Mazkur to‘plamda boshlang‘ich ta’lim sohasidagi respublikamizdagi taniqli olim va mutaxassislar, o‘rta umumta’lim maktabalarining o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar hamda iqtidorli talabalarining boshlang‘ich ta’lim jarayoniga innovatsion yondoshuvi, boshlang‘ich ta’limda malakali kadrlar muammosi, boshlang‘ich sinflarda fanlarni o‘qitish metodikasi, boshlang‘ich sinflarda tarbiyaviy ishlar, boshlang‘ich ta’limni yanada rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari, uning takomilini belgilovchi faktorlar, ta’lim-tarbiyaviy jarayonda pedagogik-innovatsion va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo‘llashning dolzARB masalalari va ularning yechimiga doir taklif-mulohazalar o‘z aksini topgan.

Anjuman to‘plami materiallaridan ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilar, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar, talabalar va sohaga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

**Mas’ul muharrir:**

**Yu.G. Maxmudov** – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti professori,  
pedagogika fanlari doktori

**Tahrir hay’ati a’zolari:**

R.Salomova, U.Eshqorayev, S.Do’stov, Q.Atamurodova, Q.Xo’shboqov, Z.Djumayeva, I.Elmurodova, M.Panjiyeva, N.Umbarova, A.Axmedov, A.Normurotova, A.A’zamqulov, O.Ergasheva, M.Toshtemirova, A.Yusupov, D.Meliyeva, H.Allayeva, N.Ibragimova, N.Xolmirzayev, O.Karimova, M.Rahmonova, A.Amirqulov

**Taqrizchilar:**

**M.X. Shomirzayev** – Termiz davlat universiteti professori,  
pedagogika fanlari doktori

**R.Xidirov** – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi

**N.R. Atamurodov** – Termiz davlat universiteti dotsenti,  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**To‘plamga kiritilgan maqolalarning mazmuni, ilmiy salohiyati va dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.**

**ISBN: 978-9910-724-74-9**

© Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishda  
zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rnini  
© “Surxon ilm nashri” nashriyoti, 2024-yil.

## ANJUMAN QATNASHCHILARIGA

Serquyosh O‘zbekistonimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardanoq mamlakat Hukumati tomonidan kadrlar tayyorlash va ta’limni tashkil etishning jahon standartlariga muvofiq keluvchi samarali tizimini izchil rivojlantirishga nisbatan ulkan diqqat-e’tibor qaratilmoqda. Holbuki, bugungi kunda oliv ta’limni modernizatsiya qilish va uning umumiy o‘rta ta’lim bilan o‘zaro integratsiyasi masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ma’lumki, yoshlarni o‘qitish, ularga puxta ta’lim-tarbiya berish, kasb-hunarga o‘rgatish, kelajakda ularni raqobatbardosh kadrlar qilib tarbiyalash har doim har bir davlatning eng birinchi ishlaridan biri bo‘lib kelgan. Kun sayin tubdan ravnaq topib borayotgan obod va ozod mamlakatimizda salmoqli islohotlar yo‘lini tutish, jo‘yali g‘oyalarni amalga oshirish, ertangi kunimiz ishonchi bo‘lgan yosh avlodlar ko‘nglini mehr bulog“ida sug‘orish, farzandlar ilmu ziyo bilan to‘laqonli qamrab olinishi yo‘lida xalq uchun har qarich yerdan oltin-dur undirish, tug‘ma iste’dodlarni yuzaga chiqarish ularga munosib shartu sharoitlar yaratib berish doimiy ravishda davlatimiz rahbarlarining diqqat markazlarida desak, bu bilan, shak-shubhasiz, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “**Agar farzandimizga to‘g‘ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo‘lib turmasak, ularni ilmu hunarga o‘rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo‘yishimiz hech gap emas**”<sup>1</sup>. Darhaqiqat, har qanday mamlakatning jahon hamjamiyatida yuksak dong taratishi, osmon qadar yuksalishi ta’limga, ta’lim rivoji esa bilimning to‘g‘ri va samarali yetkazilishiga bevosita bog‘liqdir. Bola bilimining asosiy poydevorini esa boshlang‘ich ta’lim tashkil etadi. O‘zbekiston kelajagi bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashda boshlang‘ich ta’limning tutgan o‘rni beqiyosdir.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining jadal rivojlanishi evaziga yangi kasblar yuzaga keldi va mazkur jarayonlar izchil davom etayotir. Shu sababli yoshlarni, xususan, o‘quvchilarni yana-da ko‘proq va kengroq kasb-hunarlarini o‘rganishga yo‘naltirish davlatning ham, jamiyatning ham ijtimoiy-iqtisodiy buyurtmasi bo‘lib turganida jon bor, albatta.

O‘z-o‘zidan ravshanki, endi bu sohadagi ishlarni yana-da jadallashtirish zarur. O‘ylaymizki, bugun Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasи, xususan, kafedra mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) Ra’no Vassiyevna Salomova boshchiligidagi “Boshlang‘ich sinf

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yana-da hamjihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik. //”Xalq so‘zi” gaz., 2017-yil, 16-iyun.

o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rnini mavzusida bir ajoyib tashkillashtirilgan mazkur ilmiy-amaliy anjumanning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishda mamlakatimiz umumiyligi o‘rtalim muktablarida xorijiy ilg‘or tajribalarni qo‘llash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning tutgan o‘rnini davr talabi darajasiga olib chiqish, shuningdek, umumiyligi o‘rtalimda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’lim sifatini oshirishga erishishga yo‘naltirilganligi bilan aynan mana shunday davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan muammoni ma’lum darajada yechimini topishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Agar anjuman ishini rejaga kiritilgan 4 ta sho‘ba bo‘yicha olib borilishini hisobga olsak, mazkur masalani atroflicha o‘rganish va muhokama qilish belgilanganligini ko‘ramiz. Jumladan:

**I sho‘ba:** O‘rtalim umumiyligi ta’lim va oliv ta’lim integratsiyalashuvi hamda xorij tajribasi

**II sho‘ba:** Boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi pedagogik texnologiyalar tadbiqi

**III sho‘ba:** Ilm-fan, madaniyat va innovatsiyalar orqali boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish

**IV sho‘ba:** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim va tarbiya berishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari

Albatta, shuni alohida qayd etish joizki, bu ishlarni amalga oshirish oson emas. Buning uchun professor-o‘qituvchilarimizni, shu sohaga aloqador barcha mutaxassislarimizning astoydil ishlashlariga, boshlang‘ich sinf misolida rivojlantirishga oid arzigulik takliflarni hamda tavsiyalarni berishlariga, ishlanmalarni, ta’bir joiz bo‘lsa, aytish mumkinki, “Harakatlar Strategiyasi”ni ishlab chiqishlariga to‘g‘ri keldi. O‘ylaymanki, bugungi yuqori shukuhda bo‘lib o‘tayotgan anjuman bu ishlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Men mazkur anjuman ishini samarali va foydali bo‘lishiga astoydil ishonaman va anjuman qatnashchilariga mustahkam sog‘liq, ularning mazkur ulug‘vor ishlarni amalga oshirishlarida kattadan katta yutuqlar tilayman.

*Ehtirom bilan,  
Oybek Abdumominovich Ruziyev  
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori*

bo`lish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Ozbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: Ozbekiston, 2003.- 38 b.
2. Adizov B.R. Boshlangich talmi ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. - Toshkent: Fan, 1997. -182-b.
3. Azizzodjayeva N.N. Pedagogicheskiye texnologii i pedagogicheskoye masterstvo. - T. Fan va axborot texnologiyalari, 2006. - 167 b.
4. Bikvayeva N.I., Ye.Yangabayeva Matematika 3-sinf T., 2004 yil, 12-13 b.
5. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o`quvchisining psixologiyasi. T., Ozbekiston 30 bet.

## **O`QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

*Egamberdiyeva Nigora Azizovna  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Pedagogika fakulteti “Maxsus pedagogika”  
kafedrasи o`qituvchisi  
[nigoraazizovna1991@gmail.com](mailto:nigoraazizovna1991@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida ma'lumot, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan darslarda samarali foydalanish va ularning dars samaradorligini oshirishdagi ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** “pedagogik texnologiya”, “texnologiya”, “ta’limiy texnologiya”, “Modulli texnologiya”, “Keys texnologiyasi”, “Muammoli texnologiya”.

Mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilishning tashkiliy, ilmiy va metodik asoslari yaratildi, asosiy maqsadimiz esa kelajakda davlatimiz ravnaqi uchun maktablarda ta’lim olayotgan farzandlarimizning

har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo‘lib voyaga yetkazish. Bu mas’uliyatli vazifani bajarish, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar uchun o‘z kasbiy mahoratlarini oshirib borish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni to‘g‘ri anglash va ulardan darslarda samarali foydalanishni talab etadi. Ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni faol qo‘llash, ta’lim sifat samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

O‘quv faoliyati – bu insonda muvaffaqiyatli mehnat faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini ta’minalash maqsadida uni o‘qitish hamda tarbiyalashga qaratilgan maqsadli faoliyatdir. Ushbu jarayonning mohiyati inson tomonidan to‘plangan tajriba, bilimlar, malaka va ko‘nikmalar shaklida o‘zgartirish hamda uni o‘sib kelayotgan avlodga berishdan iborat. O‘quv faoliyati insonning individual rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq va uning hamma fazalarda-bolalikdan boshlab, to ulg‘aygan davrigacha mavjud bo‘ladi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun malakali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy o‘qitish metodlari, innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati benihoya kattadir.

Innovatsiya (ingl. innovation - kiritilgan yangilik, ixtiro) - yangilanishni, o‘zgarishni amalda joriy etish jarayoni va faoliyati ma’nolarini bildiradi. Ilm-fan yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqaruv va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi

yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va doiralarda qo'llanishini aks ettiradi.

Amaliyotda “pedagogik texnologiya”, “ta’limiy texnologiya” va “ta’lim berish texnologiyasi” kabi atamalarning keng qo’llaniladi. Avvalambor, aniq ifodani berish, ularni nima birlashtirishi, nima ajratib turishini tushunish uchun ”texnologiya” va uning ma’nodoshlari bo‘lgan “texnologik jarayon”, ”texnologik harakat”, ”texnologik xarita”, ”texnologik tartib” tushunchalari anglash lozim.

“Texnologiya” so‘zi 1872-yilda muomalaga kiritilgan bo‘lib, yunoncha “techne” - mahorat, san’at, malaka va “logos”- so‘z, ta’limot ma’nolarini anglatadi. Ta’lim texnologiyasi: mavjud sharoit va belgilangan vaqtda muayyan ta’limiy maqsad va ko‘zlanayotgan natijalarga kafolatli erishishni vositali ta’minlovchi, muloqot, axborot va boshqaruvning eng qulay yo‘l hamda o‘qitish vositalarining tartibli yig‘indisi (ta’lim berish texnologiyasining jarayonbayonli jihat); bu yuzaga kelgan ta’limiy jarayon subyektlarining hamkoriy harakatlari, haqiqiy jarayon (ta’lim berish texnologiyasining amaliy jarayoni) tartibidir.

O‘quv jarayonida yangi pedagogik va axborot kommunikativ texnologiyalardan foydalanish orqali an’naviy darsdan uzoqlashish ta’lim muhitining va o‘quv jarayonining monotonligini bartaraf etishga imkon beradi, talabalar faoliyatining o‘zgarishi uchun sharoit yaratadi va sog‘liqni saqlash tamoyillarini amalga oshirishga imkon beradi. Mavzu mazmuniga, darsning maqsadlariga, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga, ularning ta’lim talablarini qondirish qobiliyatiga, o‘quvchilarning yosh toifasiga qarab zamonaviy pedagogik texnologiyani tanlash tavsiya etiladi.

Davlat ta’lim talablarini amalga oshirish maqsadida quyidagi pedagogik texnologiyalar samarali hisoblanadi:

1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
2. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi
3. Loyihaviy texnologiyalar
4. Ta’limni rivojlantiruvchi texnologiyalar
5. Sog‘liqni saqlovchi texnologiyalar

6. Muammoli ta'lim texnologiyasi
7. O'yin texnologiyalari
8. Modulli texnologiya
9. Master texnologiyasi
10. Keys texnologiyasi
11. Integratsiyalashgan ta'lim texnologiyasi
12. Hamkorlik pedagogikasi
13. Bosqichli differensatsiya texnologiyasi
14. Guruh texnologiyasi
15. An'anaviy texnologiyalar (sinf tizimi)

Bugungi kunda pedagogik texnologiyani tushunish uchun asosiy yo'l — aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta'lim oluvchining xatti-harakati orqali o'qitishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab olishi kerak.

Zamonaviy pedagogik texnologiya o'zining pedagogika va boshqa fan yutuqlari bilan bog'liq xususiy nazariyasiga ega; u birinchi galda o'quv-tarbiyaviy jarayonini ilmiy asosda qurishga yo'naltirilgan, o'qitishning axborotli vositalaridan va didaktik materiallardan, faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi.

Ta'lim ijtimoiy tizimning bir qismi bo'lib, u o'z rivojlanishida jamiyat taraqqiyotining yo'nalishlariga bog'liq ravishda ro'y berayotgan aksariyat o'zgarishlarga muvofiq o'zgara boradi. Ana shu doirada innovatsiyalar ta'lim oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy shartlaridan hisoblanadi. Pedagogik nazariya va amaliyotning tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim sohasiga umumjahon ahamiyatiga molik bo'lgan quyidagi asosiy yangiliklar xosdir:

- moliyalashtirish va boshqarish sohalaridagi o'zgarishlar;
- ta'lim tizimi tuzilishidagi muntazam o'zgarishlar;
- ta'lim texnologiyasida ro'y beradigan doimiy o'zgarishlar va h.k.

Shunday qilib, yangi texnik vositalar va yangi texnologiyalarda limga yangi tartib-qoidalarni kiritish uchun eng muhim komponentlardan biridir. Biroq ularni qanday qilib tatbiq etish va amalda foydalanishni bilib olish, aslida, hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Buning uchun maxsus tayyorgarlik, katta kuch va ko‘p vaqt sarflash lozim, ya’ni ta’limda innovatsion jarayonlarning tatbiq qilinishi bilan o‘qituvchining roli pasaymaydi, balki o‘quv-tarbiya jarayonining yuksak bosqichlarida yana ham ortadi. Bu esa pedagogdan o‘z ilmini yangidan va tanqidiy tahlil etishni talab etadi. Chunki yangi tartib-qoidalardan foydalandimi yoki axborot manbai sifatida qolib ketadimi, bu narsa ayni o‘qituvchiga bog‘liq. O‘qituvchi o‘quv texnologiyasining bevosita tartib-qoidalariiga jiddiy tayyorlangan, yo‘l-yo‘riq olgan, moslangan, ruhlangan bo‘lishi lozim.

### **Foydalanilgan adbiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda 997-son “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 17-dekabrdagi 406-sonli buyrug‘i.
3. S.Alixonov. Matematika o‘qitish metodikasi. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 2011-y.
4. Egamberdiyeva N.A. RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA AUTIZM SINDROMLI BOLALARНИ RIVOJLANTIRISH. RAQAMLI TA’LIMNING ZAMONAVIY TENDENTSIYALARI VA ULARNI TA’LIM-TARBIYA JARAYONIGA TADBIQ QILISH YO‘LLARI MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIYAMALIY KONFERENSIYASI.
5. Qodirova F.U., & Egamberdiyeva N. A. (2023). Ta’lim klasteri sharoitida autizm sindromli bolalarni tashxislash va korreksiyalash ishlarining mazmuni. Konferensiya, 1(1), 201-205.

<b>MUNDARIJA</b>		
O.A.Ruziyev	Anjuman qatnashchilariga	3-4
<b>I SHO'BA: O'RTA UMUMIY TA'LIM VA OLIY TA'LIM INTEGRATSIYALASHUVI HAMDA XORIJ TAJRIBASI</b>		
Mutaliyev A.K.	Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lismuhitiga moslashtirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	5-10
Mutaliyev A.K. Djanikulova G'.X. Saydullayeva M.T.	Imkoniyati cheklanganlik va ijtimoiy moslashtirish tushunchalari	10-16
Rahmatova H	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv jarayoniga ta'sir qiluvchi ta'limiy muammolar	16-22
Shaymardonova S.S.	Matematika fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi doirasida talabalar qiziqishini oshirish omillari	22-33
Boyqulova G.	Muammoli ta'lismi va uning o'ziga xosliklari	33-35
Ahmedova I.Sh.	Ta'lismizimlarining o'zaro aloqadorligi va integratsiya tushunchasi	35-38
Bo'ritosheva R. Xoliquova Z.	Imo-Isgorali muloqotning tarbiya jarayonidagi vazifalari	38-41
Esonova Z. Murtazoyeva Sh.	Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida integrativ yondashuv	41-45
Xusnuddinova Z.X. Bekchanova B.J. Shomuratova G.H. Rahimova M.B.	Inklyuziv va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda ta'lismi oluvchi ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilari bilan sinfdan tashqari yakka ishslash texnologiyasi	45-51
<b>II SHO'BA: BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA GUMANITAR VA IJTIMOIY-IQTISODIY SOHALARDAGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR TADBIQI</b>		
Uralova O.P.	Ingliz va o'zbek tillarida modallik ma'nosiga ega zookomponentli maqollar sturuktur tahlili	52-55
Xushboqov Q.Sh.	Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasiga mos ravishda tekshirish metodlaridan foydalanish	55-58
Normurotova A.K.	Tabiiy fanlarni o'qitishda amaliy mashg'ulotlarning o'rni va ahamiyati	58-61
Djumayeva Z. Eshmamatova A.	Ijtimoiy pedagogik faoliyatda qo'llanadigan metodlar	61-64
Boboqulova N.O'.	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining	64-69

	muvaffaqiyatida ota-onalarining o‘rni	
Djumayeva Z. Eshniyazova M.	Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Hazratlarining "Baxtiyor oila" asari haqida	69-72
Djumayeva Z. Dobilova M.I.	Yangi O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalar bilan olib borilayotgan ijtimoiy-pedagogik faoliyat	72-77
Djumayeva Z. Atamurodova N.	Ijtimoiy-pedagogik faoliyatda qo‘llaniladigan metodlar	77-82
Yangiboyeva Z.S.	Hozirgi kunda matematika darslarida innovatsion metodlardan foydalanish	82-86
Xolmuminova U.Z.	Matematika o‘qitish metodikasida foydalilaniladigan tadqiqot metodlari	86-92
Choriyeva D.M.	Masofaviy ta’lim tizimi afzalliklari va kamchiliklari	92-95
Jumanazarova D.A.	Boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda gumanitar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi pedagogik texnologiyalar tadbiqi	95-97
Xurramova G	Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar nutqini o‘stirish yo’llari	97-101
Тоймасова ІІІ.А., Тошова ІІІ.К.	Маълумот дар бораи аломатҳои китобати забони тоҷикӣ	101-104
Ramazonova A.A. Mamasaidova M.N.	Boshlang‘ich sinflarda badiiy asarni hikoya janrida o‘qitish metodikasi	104-107
Abdurahmonova M.B.	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik shartlari	107-111
Pirmatova K.	Boshlang‘ich adabiy ta’limda o‘quvchilarni kreativ fikrlashga o‘rgatishning o‘rni va zarurati	111-116
Сафиеева М. Омонова Н.П.	Инклузив таълим, унинг жамиятда тутган ўрни ва аҳамияти	116-118
Қодиров И.Д. Рахметова Х.	Умумтаълим мактабларини бошқаришга инновацион ёндашув	118-122
To‘raqulova N.T Muhabbatova G.A. Boltayeva S. Sh.	Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning og‘zaki hisob malakalarini rivojlantirish usullari	122-126
Muxtorova M	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jamoa bo‘lib shakllantirish shart-sahroitlari va usullari	126-133
Xolmo‘minova O. Qobilova N.	Boshlang‘ich sinflarda tekshirish metodlaridan foydalanish	133-136
Otamurodova G. Xudoyberdiyeva A.	Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida axborot resurslari integratsiyasi tizimini rivojlantirish usullari	136-141

Omonturdiyeva N Rasulova E	Milliy va shaxsiy qadriyatli yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari	141-144
Xasanova R. Xaydarova M.	Boshlang‘ich sinf darslarida interfaol metodlardan foydalanish	145-148
Abdujabborova Z. Sattorova I.	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiatni asrab-avaylash ko‘nikmalarini shakllantrish usullari	148-152
Fayzullayeva N. Sharipova S.	Boshlang‘ich sinf darslarida o‘quvchilarda iqtisodiy bilim tushunchasini shakllantirish usullari	152-157
Mustafoqulova Sh. Norqobilova J.	Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishni tashkil etishda pedagogik mahorat	157-161
Eshqobilova D. Abdumannonova N.	Kreativlik tushunchasi va boshlang‘ich ta’limda qo‘llash	161-164

**III SHO‘BA: ILM-FAN, MADANIYAT VA INNOVATSİYALAR  
ORQALI BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH**

Tag`onova G.B. Xalilova M.G‘. Matkarimova Sh.A.	Boshlang‘ich ta’limda ta’lim sifatini oshirishda innovatsion g‘oyalari va ularning ahamiyati	165-169
Yusupov A.A.	Modulli-kompetentli yondashuv asosida kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish	169-175
Abdusattorova N.A. Egamberdiyeva M.Sh Umarova M.A.	Boshlang‘ich sinflarda tez aytishlar orqali o‘quvchilarning nutqiy malakalarini rivojlantirish	175-179
Karimova O.Ch.	Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida etika va deontologik madaniyat	179-183
Abdimuratova S.Q.	Matematikani o‘qitish innovatsion jarayonini loyihalashtirish	183-186
Raxmonova M.Sh.	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini muvaffaqiyatga intilish motivini shakllantirish	186-189
Adashaliyeva R.H.	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fazoviy figuralar to‘g‘risidagi tasavvurlarni shakllantirish	189-194
Ko‘palboyeva F.J.	O‘quvchilarga tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirish	194-199
Sattorova F. X.	Yurtimiz ta’lim tizimidagi bo‘layotgan islohotlar	199-201

Murodova M. F.	Ilm-fan va madaniyatning boshlang'ich ta'limda tutgan o'rni	201-203
Zaripova F.C.	Maъlumoti umumiy dar borai madaniyati suxan va uslubshinoi	203-208
Zikirtulloeva G.A.	Boshlangich sinf o'quvchilarida ma'naviyat tushunchasining shakllanishi	208-212
G'afforova I. Qarshiyeva S.	Boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish	212-216
Raxmatullayeva Zinnura Mamaradjabova Madina	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatini shakllantirishning ahamiyati va usullari	216-222
Egamberdiyeva N.A.	O'quv jarayoni samaradorligini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	222-226

**IV SHO'BA: BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA TA'LIM VA TARBIYA BERISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI**

Fozilov B.Z.	Ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasalari tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning faol fuqaroligini shakllantirish vositalari	227-229
Abdullayev B.M.	Boshlang'ich sinf o'quvchilari huquqiy madaniyatini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari	229-233
Salomov G'.Yu.	Invariant sinf soatlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashning pedagogik asoslari	233-236
Xusnuddinova Z.X. Nuriddinova M.O'.	Ko'rishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lif va tarbiya berishning zamонавиy pedagogik texnologiyalari	236-241
Panjiyeva M.	O'quvchilarini ona tabiat bilan tanishtirish	241-244
Xusnuddinova Z.X. Tilanova M.U. Tojiahmedova Sh.T. To'rayeva J. S.	Boshlang'ich sinflarda ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarga matematika o'qitishning zamонавиy texnologiyasi	244-249
Meyliyeva M.S.	Bolani mакtabga psixologik tayyorgarligi	249-253
Tag'onova G.B. Hasanova N.Q. Rustamova E.A.	Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni o'qitishning zamонавиy texnologiyalari va uning ahamiyati	253-257

<i>Xolmirzayev N.N. Do'stov S.R.</i>	Bugungi kunda matematika fanini o'qitishda innovatsion ta'lif texnologiyalarining o'rni	258-263
<i>Ibragimova N.U. Hasanova N.I.</i>	Boshlang'ich sinfda arifmetik amallarni o'rgatishda didaktik o'yinlarning o'rni va ahamiyati	263-266
<i>Zulxonova L.</i>	Oiladagi farzand tarbiyasi: milliy tajribalar va ilmiy tadqiqotlar	266-270
<i>Eshonqulova M.Z. Turdaliyeva D.X.</i>	Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lif va tarbiya berishning zamонави pedagogik texnologiyalari	270-274
<i>Raxmonova M.Sh.</i>	O'quvchilarni tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish	274-283
<i>Dehqanova M.G'. Ataxodjayeva O.S. Qodirova M.B. Yorkulova R.O.</i>	Daktil alifbosi va undan foydalanish shartlari	283-287
<i>Sharofiddinova F.F.</i>	Fitrat she'riyatida milliy istiqlol motivlari	287-290
<i>Joniqulova D.S. Sheraliyeva M.K. Salomova Sh.Sh.</i>	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanishning o'rni va ahamiyati	290-294
<i>Otamurodova M.H.</i>	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuzida jarangli va jarangsiz tovushlarning o'rni	294-297
<i>Mekkamova F.X.</i>	Alohidat ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalar mакtablari o'quvchilariga ekologik tarbiya berish usullari	297-301
<i>To'rayeva O.A.</i>	Boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'rgatishning zamонави usullari	302-305
<i>Kenjayeva M.N.</i>	Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lif va tarbiya berishning zamонави pedagogik texnologiyalari	305-308
<i>Husanova L.N.</i>	Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lif va tarbiya berishda zamонави pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ustuvor vazifalari	308-312
<i>Nurulloyeva M.Q. Zikiryayeva M.O.</i>	Ta'lif va tarbiyaning uzviy bog'liqligi	312-315
<i>Xolmurzayeva Z.</i>	Oila tarbiyasida salbiy va ijobiy metodlarning ahamiyati	315-337
<i>Musayeva B.A.</i>	Boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini	337-341

	o‘qitish jarayonida o‘quvchilar qiziqishini oshirish	
Mekkamova F.X.	Alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar maktablari o‘quvchilariga ekologik tarbiya berish usullari	341-345
Esonova M.A.	Zamonaviy pedagogik texnologiyalar	346-348
Ibodullayeva M Ziyodullayeva M	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalangan holda tarbiyalash	348-358
Jaylovova D.	Boshlang‘ich sinflarda loyihaga asoslangan holda o‘qitish bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantiruvchi texnologiyalar	358-363
Xurramova A.	Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish afzalliklari	363-366

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

BOSHLANG‘ICH TA’LIM METODIKASI KAFEDRASI

“BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA TA’LIM-TARBIYA  
BERISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI” mavzusidagi  
respublika ilmiy-amaliy anjuman  
MATERIALLARI TO‘PLAMI  
III QISM  
2024-yil 18-sentyabr

Muharrir: R.V.Salomova  
Musahhih: S.R.Do‘stov  
Texnik muharrir: Z.Djumayeva  
Kompyuterda sahifalovchi: A.Axmedov

Bosishga ruxsat etildi: 13.09.2024-yil.  
Ofset bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ .  
“Times New Roman” garniturasi. Ofset bosma usuli.  
Shartli b.t. 28,5 Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 131.

---

TerDU nashriyot nashr-matbaa markazida chop etildi.  
Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy.

ISBN: 978-9910-724-74-9



A standard linear barcode representing the ISBN 978-9910-724-74-9. The barcode is composed of vertical black lines of varying widths on a white background.

9 789910 724749

7603

